




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-OKTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 65-220-83-06

www.buxstat.uz



2022- yil yanvar-oktabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 20 591,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-oktabr oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,4 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 18 832,9 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 91,4 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili shlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 149,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 5,4 % ga oshganidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash utilizatsiya qilishda – 37,9 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 793,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ini tashkil etdi.



2022- yil yanvar-oktabr oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da



Oltinugurt




Shag'al



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oltinugurt, t.	1 186,0	1 429,0	243,0
Shag'al, t.	14 000,0	19 000,0	5 000,0




Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burg'ulash xizmatlari



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burg'ulash xizmatlari, mln. so'm	136 089,6	133 521,0	- 2 568,6


2022- yil yanvar- oktabr oylarida



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 832,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,4 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,2 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 55,0 % (51,0 %) va quyi texnologiyalisi – 42,7 % (47,0 %) ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,2 % (2021- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,2 % (2021- yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 98,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,8 % (2021- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 95,4 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,2 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5 %) ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 806,9 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 13,2 % ga ko'paygan), 223,4 ming litr uzum vinosi (31,8 % ga kamaygan), 5 030,2 ming litr aroq mahsulotlari (134,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2022- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	67,8	70,5	2,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t	6 364,0	3 497,0	- 2 867,0
Paxta tolasi, t	71 038,0	61 139,0	- 9 899,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	71 284,2	57 630,0	- 13 654,2
Paxta chigiti, t.	103 595,0	88 834,0	- 14 761,0

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 113,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 98,3% ni va ishlab chiqarish hajmi 70,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 992,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,4 % ga va ishlab chiqarish hajmi 3 241,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar- oktabr oylari yakunlariga ko'ra, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 58,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 114,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 98,4 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 574,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallar, qoq'oz va qoq'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 137,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 94,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 210,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 59,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 102,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 459,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 58,7 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 43,2 % ni, fizik hajm indeksi 110,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8 883,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 235,2 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 94,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 812,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 249,3 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,4 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,0 % va axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 23,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 089,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylari mos davriga nisbatan 107,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatida 2 740,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 3,5 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Kogon tumani (115,9 %), Qorovulbozor tumani (113,2 %), Qorako'l tumani (109,2 %) va G'ijduvon tumani (107,0 %) korxonalaridan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 35,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 65,0 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 37,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 62,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 103,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 109,8 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (24,0 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (18,9 %) ni, G'ijduvon tumani (10,6 %) ni, Jondor tumani (7,6 %) ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Buxoro viloyati

5 116,3 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-oktabr

6 769,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-oktabr

7 837,0 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



2020- yil

105,7 %

2021- yil


125,6 %

2022- yil


107,5 %

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (36,1 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (17,0 %) ni, G'ijduvon tumani (11,4 %) ni, Kogon tumani (5,8 %) ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, (22,4 %) ni, Jondor tumani (14,4 %) ni, Kogon tumaniga esa (9,0 %) ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, (46,1 %) ni, shuningdek, Buxoro shahriga (11,5 %) ni, G'ijduvon tumani esa (6,4 %) ni tashkil etdi.



 o'sish sur'ati
 mlrd. so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (493 503,3 ming so'm), Kogon tumani (13 934,9 ming so'm) hamda Kogon shahrida (11 767,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 355,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 941,1 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 97 641,1 ming so'mni, Kogon tumanida – 6 623,3 ming so'mni, Buxoro shahrida – 5 182,1 ming so'mni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 555,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.



 ulushi, % da
 mlrd. soʻm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



Bugungi kunda viloyatda 4 970 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 259 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining (25,3 % i) Buxoro shahriga, 605 tasi (12,2 % i) G'ijduvon tumaniga, 397 tasi (8,0 % i) Kogon tumaniga, 369 tasi (7,4 % i) Buxoro tumaniga, 368 tasi (7,4 % i) Jondor tumaniga, 363 tasi (7,3 % i) Romitan tumaniga, 288 tasi (5,8 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



 yangi tashkil etilgan
 faoliyat yuritayotgan